



# MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA INQIROZLI DAVRLARNI BARTARAF ETISH YO`LLARI

*Kudratova Gulnoza Shaxritdin qizi,*

*Navoiy davlat universiteti magistranti*

*[Gullnoz19@gmail.com](mailto:Gullnoz19@gmail.com)*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda inqiroz davrlarining yuzaga kelishi va ularni bartaraf etish yo`llari haqida ma`lumot berib o`tilgan. Inqiroz davrlarining naqadar dolzarbliги va ularga yechim topish haqida bat afsil yoritib o`tilgan. Inqiroz davrlari bolada qanday kechishi, undagi kutilmagan vaziyatlar va bunday vaziyatlarda ota-onalar va pedagoglar qanday yo`l tutishi lozimligi aks etgan.

**Kalit so`zlar:** krizis davri, pozitsiya, emotsiyal, muvozanatning buzilishi, keskinlik, kutilmagan vaziyat, idrok, mustaqillik, xulq-atvor, o`yin faoliyati, stress, tushkunlik, psixologik sifatlar, muloqot, mashg`ulot, tarbiyaviy ish, obyektiv mavqe, maxsus metodik qo`llanmalar, individual yondashuv, inklyuziv ta`lim, ijobiy munosabatlar.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается возникновение кризисных периодов у детей дошкольного возраста и способы их преодоления. Подробно освещена актуальность кризисных периодов и поиск решений для их преодоления. Описано, как проходят кризисные периоды у ребенка, какие неожиданные ситуации могут возникнуть, а также, как родители и педагоги должны действовать в таких ситуациях.

**Ключевые слова:** Кризис, позиция, эмоциональная, баланс, напряженность, неожиданная ситуация, преступность, поведение, психологические прилагательные, общение, механизм, образовательная работа, объективная позиция, специальная методическая поддержка.

**Abstract:** This article discusses the emergence of crisis periods in preschool-aged children and ways to overcome them. The relevance of crisis periods and finding



solutions for overcoming them are discussed in detail. The article describes how crisis periods unfold in children, the unexpected situations that may arise, and how parents and educators should act in such situations.

**Key words:** Crisis period, position, emotional, balance, tension, unexpected situation, criminality, conduct, psychological adjectives, communication, machinery, educational work, an objective position, special methodical support, individual approach, inclusive education, positive relationship.

Inqiroz davri – bu rivojlanishdagi burilish nuqtasi bo'lib, ushbu jarayondan bola moslashgan, kuchliroq yoki zaiflashgan holda o'tishi mumkin. Inqiroz davri rivojlanishning ijtimoiy holatini qayta qurish bo'lib, u bolaning o'zi uchun mavjud bo'lgan ijtimoiy munosabatlar tizimidagi ob'ektiv mavqeini o'zgartirishga va uning ichki pozitsiyasini o'zgartirishga asoslanadi. Yoshga oid inqirozlar hayotning bir bosqichidan boshqasiga o'tish holatlarini ifodalaydi. Shu sababli, kutilmagan vaziyatlar yuzaga keladi va xulq-atvor keskin o'zgaradi, bu har doim ham ijobiy tomonga bo'lmaydi. Yoshga oid inqirozlar bu bolaning tabiiy rivojlanishining bir qismidir. Inqirozli davrlar (krizis davrlari) bu bolaning rivojlanish jarayonida sifat jihatdan yangi bosqichga o'tish bilan bog'liq bo'lgan murakkab davrlar demakdir. Krizisni boshidan kechirayotgan bola o'z harakatlaridan o'zi aziyat chekadi, lekin o'zini boshqara olmaydi. Mutaxassislarning aytishicha, bu davr uzoq davom etmaydi va bu davr bola rivojlanishi uchun zarur davr deb ta'kidlashadi. Chunki bu davrda bolalar o'z fikrlarini o'tkazishni o'rganihsadi. Bu davrdan bola ruhiyatiga ta'sir etmagan holatda chiqib ketishimiz kerak bo'ladi. Ya`ni o'ta qattiqqo'l bo'lmaslik, jazolamaslik, asabiylashmasdan muloyimlik bilan muomala qilish, mustaqil nimadir ish qilishiga qo'yib berish va xotirjam bo'lishga urinish. Chunki bola asabiylilikni ko`rsa, sizga yoqmaydigan ishida davom etaveradi, ammo xotirjam bo`lsangiz bola qayta takrorlashga qiziqlaydi. Kutilmagan vaziyatlardan ba`zilarini keltirib o'tamiz:

➤ Keskinlik: Bola xatti-harakatlari va hissiy holatida o'zgarishlar kuzatiladi.



- Muvozanatning buzilishi: Bola o‘zining ichki va tashqi muhitiga nisbatan yangi munosabatlarni shakllantira boshlaydi.
- Yangi sifatlarning paydo bo‘lishi: Bola o‘zida mustaqillik, idrok va xulq-atvorga oid yangi jihatlarni rivojlantiradi.
- Psixologik yangi hosilalar: Har bir inqiroz davri yangi psixologik sifatlarni shakllantirishga xizmat qiladi, masalan, o‘z-o‘zini anglash, mas’uliyat hissi, mustaqil fikrlash.

Inqirozli davrlarda pedagogik qo‘llab-quvvatlash juda muhim. Bu quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

1. O‘yin faoliyati: Bola o‘z hissiy holatini ifoda etish uchun o‘yinlarni faollashtirish
2. Mashg‘ulot va tarbiyaviy ishlar: Mashg‘ulotlar davomida bolaga yangi bilimlarni yetkazish bilan birga, uning qiziqishlariga mos keladigan faoliyatlarni tashkil etish.
3. Muloqot va tushuntirish: Bola bilan doimiy ravishda muloyim ohangda muloqot qilish va inqirozli xatti-harakatlarni to‘g‘ri yo‘naltirish.
4. Ota-onalar bilan hamkorlik: Inqirozli davrlarni samarali yengib o‘tishda ota-onalarning roli juda katta. Ularni quyidagilarga o‘rgatish tavsiya etiladi:
  - Bola bilan to‘g‘ri muloqot qilish.
  - Bolaning mustaqilligini qo‘llab-quvvatlash, lekin cheklovlarni yumshoq belgilash.
  - Hissiy muvozanatni saqlash uchun ijobiy muhit yaratish.
5. Ilmiy va amaliy tavsiyalar:
  - Psixologik treninglar orqali ota-onalarni bolalarning inqirozli davrlarida to‘g‘ri yondashuvga o‘rgatish.
  - Tarbijachilar uchun maxsus metodik qo‘llanmalar ishlab chiqish.
  - O‘yin va o‘quv materiallarini bolalarning yoshiga mos ravishda moslashtirish.

Xulosa qilib aytadigan bo`lsak, inqirozli davr bola uchun eng og`ir davr hisoblanadi. Ushbu davrlardan qanday o`tishi kelgusi hayotida qanday inson bo`lib



yetishishiga bog`liq hisoblanadi. Nafaqat bolalarda, balki, kattalarda ham inqiroz davrlari mavjud. Bolalikdagi stresslar va tushkunlik holatlari kattalardagi inqiroz davrlarida yuzaga chiqadi. Bunday vaziyatlarni oldini olish uchun bolaligidagi inqiroz davrida bolaga ko`mak bo`la olish kerak bo`ladi. Buning uchun ota-onalardan va tarbiyachilarda juda katta bilim, tajriba va sabr-matonat talab etiladi. Inqirozli davrlarni yengish uchun bolalar bilan individual yondashuv, ularning hissiy holatini tushunish va to`g`ri tarbiya metodlarini qo`llash muhimdir. Ta'lim muassasalarida inkluziv ta'limning joriy etilishi ham bolalarga o`z imkoniyatlarini ro`yobga chiqarishga yordam beradi.

Shuningdek, bolalar bilan ishlashda ijobiy munosabat va hissiy qo`llab-quvvatlashning o`rni katta. Psixologik yordam, ijtimoiy-emotsional rivojlanish, tarbiyaviy ishlanmalar va o`zaro muloqot orqali bolalar inqirozli davrlarni osonlik bilan yengib, kelajakda muvaffaqiyatli shaxslar bo`lib shakllanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda inqirozli davrlarni bartaraf etish, ayniqsa, ularga xavfsiz va qo`llab-quvvatlovchi muhit yaratish orqali amalga oshirilishi mumkin. Bu jarayonni boshqarish va samarali yondashish bolalarning sog`lom va barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Выготский Л.С. (1984). "Maktabgacha yoshdagi bolalarining rivojlanishi". Moskva: Pedagogika.
2. Jalilova S.X. – “Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi”, T-2014.
3. A. Karimov. – “Maktabgacha yoshdagi bolalarining axloqiy va hissiy rivojlanishi”, Nashr yili: 2016
4. Vasileva V. (2017). "Bolalar inqirozli davrlarida pedagogik yondashuv". Moskva: Prosveshchenie.
5. Sh. Tashmuhammadova. – “Maktabgacha yoshdagi bolalarining axloqiy va hissiy rivojlanishi”, 2018.
6. M. Asqarova. – “Maktabgacha ta'limda bolalar psixologiyasini o'rgatish”, Nashr yili: 2019.



7. Mahmudova D. (2020). "Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi". Toshkent: Fan.
8. Nigora Xayitboboyeva, Rahimova Umida – “Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasining xususiyatlari va talablari”, T-2023. 60-62-betlar.
9. Shadiev Feruz Djaxonovich – “Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqiy rivojlanishida ijtimoiy-psixologik omillarning ta’siri”, T-2024.